

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

## Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy  
markazi**

“Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da  
ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitishga zamonaviy  
yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish

Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi  
materiallari

**(2023-yil, 6-dekabr)**

Tezislар va maqolalar to‘plami

**Buxoro-2023**

To‘plamda “Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”da ta’lim sifatini yanada oshirish jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalardan foydalanish masalalari tahlil qilingan tezis va maqolalar kiritilgan.Uchinchi Renessansning mustahkam poydevorini yaratishda ta’lim va tarbiyaning roli, yuksak ma’naviy xazina hisoblangan buyuk ajdodlarimiz merosini o‘rganish hamda “O‘zbekiston-2030”strategiyasida ilgari surilgan,erkin,farovon va qudratli Yangi O‘zbekistonni barpo etishda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish haqidagi fikrlar bayon etilgan tezis va maqolalar kiritilgan.

Yuksak bilimli,intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash,ular ongi va qalbiga vatanga muhabbat,yurt taqdiriga dahldorlik his-uyg‘ularini singdirish,yosh avlodni Yangi O‘zbekiston-taraqqiyotning yangi bosqichi”dagi tub islohotlar jarayonida faol ishtirok etish masalalari tahliliga bag‘ishlangan ushbu to‘plam soha mutaxassislari,professor-o‘qituvchilar,umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘qituvchilari,tadqiqotchi-izlanuvchilar ,magistr va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

**Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallarini tayyorlash  
bo‘yicha mas’ullar:**

**Tahrir hay’ati raisi:** A.K.Safarov, Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi direktori.

**Mas’ul muharrir:** Yu.H.Haydarov, “Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”kafedrasи mudiri ,tarix fanlari nomzodi,dotsent.

**Tahrir hay’ati:**

**Sh.R.Astanov** –“O‘quv va metodik ishlar bo‘yicha direktor o`rinbosari

**B.Ya.Axmedov** -“Tillarni o‘qitish metodikasi kafedrasи “mudiri,filologiya fanlari nomzodi,dotsent.

**R.V.Astanov**-“Tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish metodikasi” kafedrasи mudiri.

**U.A.Qosimov**-“Pedagogika,psixologiya va ta’lim texnologiyalari kafedrasи mudiri,psixologiya fanlari nomzodi,dotsent

**M.S.Narzieva**-“Maktabgacha,boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” mudiri

**M.Q.Oripova**-“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”kafedrasи katta o‘qituvchisi

**M.I.Abdullayeva**-“Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodikasi”kafedrasи katta o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:** Yu.Sh.Shukrullayev- tarix fanlari nomzodi,dotsent.

B.I.Mustafoev-pedagogika fanlari nomzodi,dotsent.

To‘plam BVPYaMO‘MM ilmiy-metodik kengashi tomonidan foydalanish uchun tavsiya etilgan. (2023-yil 4-dekabrdagi navbatdan tashqari yig’ilishi bayonnomasi.)

isiriq tutatish, Qur'on suralaridan tilovat qilish, ko'plab salovat va duolar o'qish kabi urf-odatlar mujassam. Shuningdek, qasida va qo'shiqlar ijro etilib o'tganlar ruhiga bag'ishlash orqali maqsad-murodlari so'raladi. Diniy urf-odat, an'ana va marosimlar vaqt o'tishi bilan milliy an'ana va marosimlarga aylanib borishi transformatsiyalashuv deb ataladi. Diniy marosimlarni bajarishda kohinlar, keyinchalik ruhoniylar boshchilik qilgan. Ular o'z marosimlarini asta-sekin muayyan dinning talabi, xususiyati, aqidasi va ehtiyojiga moslaganlar.

Yakkaxudolik dini bo'lmish islom dini ko'pxudolikka barham berdi, butun O'rta Osiyo mintaqasi islom dini atrofida birlashdi. Yuqorida aytib o'tilganidek, aholi orasida saqlanib qolgan ba'zi urf-odat va marosimlar transformatsiyalashuv natijasida diniy ahamiyat kasb etmagani holda mahalliy an'ana va marosimlar sifatida saqlanib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

Абу Бакр Мұннамад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Ўзбекистон «Фан» нашриёти. Тошкент.: 1966.

Азимхўжа Отахўжаев. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суг‘д муносабатлари. Тошкент.: 2010.

Назарбеков А.В. Диншунослик асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент.: 2008.

Saloxov A.Q. Falsafa. O'quv qo'llanma. Toshkent.: "Lesson press" nashriyoti, 2021.

Белоглазов А.В. Влияние ислама на политические процессы в Центральной Азии.-Казан: Казан. Ун-т, 2013-

Sultanova R. From Shamanism to Sufism Women/ Islam and Culture in Central Asia. L.: "I.B.Tairus". 2011.

Ibragimov E. Markaziy Osiyo hududidagi ilk xristianlar // TIU ilmiy-tahliliy axboroti. – Toshkent: TIU, 2005. -171 b.

## **BUYUK AJDODLARIMIZNING JASORATI VA FIDOIYLIGI – AVLODLAR UCHUN IBRAT**

**Nizomova Shoxista Shodiyevna**

**Buxoro davlat universiteti,**

**Maktabgacha ta'lim kafedrasi dotsenti,**

**Annotatsiya:** ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz merosi ularning jasorati va fidoiyligi avlodlar uchun ibrat namunasi masalalarini ilmiy-nazariy tadqiqi ifoda etilgan.

**Kalit so'zlar:** avlodlar,jasorat,fidoiylilik,buyuk meros,urf-odat,an'ana,ajdod,.

**Аннотация:** В данной статье представлено научно-теоретическое

исследование наследия наших великих предков, их храбрости и самоотверженности как примера для будущих поколений.

**Ключевые слова:** поколения, мужество, самоотверженность, великое наследие, обычай, традиция, предок.

**Abstarct:** This article presents a scientific-theoretical study of the legacy of our great ancestors, their bravery and selflessness as an example for future generations.

**Key words:** generations, courage, dedication, great heritage, custom, tradition, ancestor.

O‘zbek ziyolilari tomonidan “ma’naviy ilhomchi”, “buyuk millatning buyuk kelajak maqsadlari uchun tunu-kun tinim bilmagan xalq xizmatkori”, deya e’tirof etilgan adabiyotshunos, tarbiyachi, muharrir, maorif, jamoat arbobi Munavvar qori Abdurashidxonovning ibratli hayot yo‘li va boy ijodiy merosini teran nigoh ila o‘rganmog’imiz lozim. Ulug‘ ajdodimiz 1878- yil Toshkent shahrining hozirgi Shayxontohur tumani, Darxon mahallasida o‘qituvchilar oilasida tug‘ilgan. Eshonquli dodgoh (Toshkent) va Mirarab (Buxoro) madrasasida ta’lim olgach, Toshkentning Darxon masjidida imom bo‘lib ishlaydi. XIX asr oxirida Munavvar qori jadidchilik harakatida faol ishtirok etadi. 1901- yil avval o‘z uyida jadidchilik maktabini ochadi, keyinroq Toshkentning boshqa dahalarida hamshunday maktablar ochadi. U maktablar uchun grammatika va alifbo asoslari ifodalangan “Birinchi ustoz” nomli yangi usuldagagi ilk darslikni tayyorlaydi. “Ikkinchi ustoz” deb nomlangan ikkinchi kitobida o‘qish va yozishga qaratilgan uslubni, shuningdek, oiladagi o‘zaro munosabatlarni yoritgan. Shu bilan birga ilk matematika darsligini tayyorlagan. “Tajvid al-Qur’on”, “Yer maydoni” kabi qo‘llanmalar tayyorlab, ularni nashrdan chiqaradi. Bolakaylar uchun esa she’r va hikoyalar yozadi.[1] 1909 -yil Toshkentda “Jamiyati xayriya” ittifoqini va “Turon” uyushmasini tashkil qiladi. Munavvar qori 1906- yil “Xurshid” birinchi gazeta tahririyatini ochadi. Keyinroq u yerdagi “Najot”, “Kengash” gazetalarida muharrir, “Sadoyi Turkiston” gazetasida esa bosh muharrir lavozimlarida faoliyat yuritadi. U o‘zbek teatri asoschilaridan biri. U teatr yordamida “buzuq odatlar” va ularni tuzatishni ko‘rsatgan. Uning truppasi “Turon” deb nomlangan. Truppa 1914- ildan 1924-yilga qadar faoliyat ko‘rsatgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalarining

o'lmas asarlari jahon ilm fani rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro singari dunyoga dong taratgan buyuk siymolar insoniyatga komillik yo'lini ko'rsatdi. [3] Muhaddislar Imom Buxoriy, Imom Termiziyning ta'limotida aks etgan komil inson g'oyalari, adolat haqidagi qarashlar jamiyatni ma'naviy-axloqiy jihatdan yuksaltirishga, mustahkamlashga xizmat qildi. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Imom Termiziydek yetuk muhaddislar dunyoda Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manba hisoblangan hadis to'plamlarini yaratishda benihoya fidoyilik ko'rsatishdi, ibrat bo'lishdi. Shu bilan birga, asrlar davomida ma'naviy boyligimizni o'zida mujassamlashtirgan qo'lyozma asarlarni topish, tadqiq etish va nashrqa tayyorlash hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bunday ulkan meros yangi avlodlarga katta ilm manbayi hamda kelajakdagi tadqiqotlar uchun muhim qo'llanma sifatida xizmat qiladi. Binobarin, respublikamiz qo'lyozma fondlarida 100 minglab qo'lyozmalar saqlanmoqda. Shulardan biri — Imom Buxoriy xalqaro markazi manbalar xazinasidir. Ulug' ajdodimizning ma'naviy jasorati o'z davrida ham qahramonlik edi. U Hamza, Elbek, Oybek, Akmal Ikromov, Abdulhay Tojiyev, Salimxon Tillaxonov, Qayum Ramazon, Bahrom Haydariy, Mannon Uyg'ur kabi madaniyat arboblari, adabiyotshunoslar, olimlarga ham ustozlik qilgan.Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g`oya targ`ibiga bag`ishlangan buyuk milliy ma'naviy merosimiz bor. Ularning barida tinchlikning qadriga yetish targ`ib etiladi. 9-mayni" Xotira va Qadrlash " kuni tarzida umumxalq bayrami sifatida nishonlab kelayotganimiz zamirida ham aynan ana shu ezgu maqsad yotibdi.Hamon oramizda qanchadan-qancha urush qatnashchilari, front ortida mehnat-mashaqqat chekkanlar bor. Mustaqil O'zbekiston xalqi va davlati avval-boshdan tinchlik-totuvlik tarafдори sifatida maydonga chiqdi.Ana shu asoslarga ko`ra, mustaqillik yillarida ham bizda 9-may umumxalq bayrami sifatida, 1999-yildan boshlab esa Xotira va Qadrlash kuni sifatida nishonlaymiz. [3] Fashizm ustidan qozonilgan g`alabada xalqimizning ham mardonavor va salmoqli hissasi unutilmas haqiqatdir.Bugun milliy madaniyatimiz, ilm-fan, adabiyot va san'atimiz yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan ma'rifatparvar

ajdodlarimizning boy merosini o‘rganish, targ‘ib etish, uning mazmun-mohiyatini yosh avlod ongu shuuriga singdirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Jumladan, Vatanimiz hududlaridagi bebahо madaniy yodgorliklar asl qiyofasini yo‘qotmagan holda ta’mirlanib, atrofi obodonlashtirilayotir. Shu bilan birga, asrlar davomida ma’naviy boyligimizni o‘zida mujassamlashtirgan qo‘lyozma asarlarni topish, tadqiq etish va nashrga tayyorlash hozirgi kunda dolzarb masalalardan biridir. Bunday ulkan meros yangi avlodlarga katta ilм manbayi hamda kelajakdagи tadqiqotlar uchun muhim qo‘llanma sifatida xizmat qiladi.[4] Binobarin, respublikamiz qo‘lyozma fondlarida 100 minglab qo‘lyozmalar saqlanmoqda. Shulardan biri Imom Buxoriy xalqaro markazi manbalar xazinasidir. Bularning barchasi xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodni bobokalonlarimiz, aziz-avliyolarning bebahо merosi bilan chuqurroq tanishtirishga qaratilganligi tufayli yanada ahamiyatli. Zero, tarixga hurmat tuyg‘usi, o‘tmishni o‘rganish xalqning o‘zligini anglashdagi muhim omildir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Муhammad Юсуф. Биз баҳтли бўламиз. – Тошкент: «Nihol», 2008. – Б.121.
2. Зулфия. Яратиш дарди. Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: «Шарқ», 2012. – Б.190.
3. Каюмов О. Ўзбек фолклорида пари образи (генезиси ва бадиияти). – Тошкент: 1994. –Б.136.
4. Зулфия. Хотирам синицлари. Достон.Тонг билан шом аро. Сайланма. – Тошкент: «Шарқ», 2012. – Б.218.
5. Снесарев Г.П. – Хоразмликларнинг мусулмонликдан аввалги маросимлари ва урф-одатлари. – Урганч: УрДУ ноширлик бўлими, 2018. – Б.188.
6. Алимуҳамедов А. Антик адабиёт тарихи. Иккинчи нашри. Дарслик. – Тошкент: «Ўқитувчи», 1975. – Б.18-51.

|    |   |     |
|----|---|-----|
|    | <p>Tarix yo‘nalishi 1-bosqich talabasi</p> <p><b>AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA ILM-FAN<br/>TARAQQIYOTINING ASOSIY SABABLARI VA UNING BUGUNGI<br/>KUN ILM-FANIDA TUTGAN O‘RNI</b></p>   |     |
| 77 | <p><b>Sh.B.Jumayeva</b></p> <p>CHDPU Gumanitar fanlar fakulteti “O‘zbekiston tarixi”<br/>kafedrasи mudiri, t.f.f.d.(PhD)</p> <p><b>ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR BUNYOD ETGAN<br/>ZIYORATGOH TARIXI</b></p>   | 375 |
| 78 | <p><b>Hayotxon Samandarovna Ergasheva</b></p> <p>Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi</p> <p><b>BURHONIDDIN MARG‘INONIY DINIY-FALSAFIY QARASHLARIDA<br/>TA’LIM MASALALARI</b></p>  | 378 |
| 79 | <p><b>G .Qamariddinova</b></p> <p>Bux. MTI Ijtimoiy fanlar kafedrasи</p> <p><b>BUXORO VOHASIDA ISLOMDAN OLDINGI MAHALLIY DINLAR</b></p>   | 382 |
| 80 | <p><b>Nizomova Shoxista Shodiyevna</b></p> <p>Buxoro davlat universiteti,<br/>Maktabgacha ta’lim kafedrasи dotsenti</p> <p><b>BUYUK AJDODLARIMIZNING JASORATI VA FIDOIYLIGI –<br/>AVLODLAR UCHUN IBRAT</b></p>  | 386 |
| 81 | <p><b>Mirzaeva Nigora</b></p> <p>ChDPU Gumanitar fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi<br/>3-kurs talabasi</p> <p><b>BUYUK AJDODLARIMIZ MEROSI – BEBAHO XAZINA</b></p>  | 390 |
| 82 | <p><b>Eshquvvatova Mahfuza</b></p> <p>Chirchiq davlat pedagogika universteti Tarix yo‘nalishi 2-bosqidch talabasi</p> <p><b>Ilmiy rahbar: Shoira Berdiyarovna Jumayeva</b></p> <p>CHDPU O‘zbekiston tarixi kafedrasи mudiri, t.f.f.d.(PhD), dots.</p> | 394 |